

**ORGANIZMDA TIREOID GORMONLARNING YETISHMOVCHILIGIDA  
YUZAGA KELADIGAN O'ZGARISHLARNI BAHOLASH**

**Xolmurodov Inoyatillo Ismatullayevich, Xolmurodov Abrorbek Baxtiyorovich,  
Normamatov Jaxongir Sherzod o'g'li.**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tibbiy fundamental fanlar  
kafedrasi o'qituvchisi,  
TISU Stomatologiya yo'nalishi  
2-kurs talabalari**

**Muammoning dolzarbliyi:** Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti manba'lari ma'lumotlariga qaraganda dunyo aholisi orasida keng tarqalgan somatik kasalliklar orasida qalqonsimon bez kasalliklarining tarqalish darajasi salomoqli o'rirlarni egalab kelmoqda. Tireoid gormonlarning organizmda yetishmasligi yoki miqdorining oshib ketishi natijasida barcha organ va to'qimalarda, ayniqsa, yurak qon-tomir tizimida morfologik va funksional o'zgarishlarni baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Dunyodagi atrof muhitda yod tanqisligi mavjud bo'lgan sharoitda qalqonsimon bez kasalliklarining aholi salomatligiga ta'siri katta hisoblanadi. Ayniqsa, qalqonsimon bez kasalliklari oqibatida organizmning boshqa a'zo va to'qimalarida kelib chiquvchi, jumladan yurak qon-tomir, ovqat hazm qilish, siydk ajratish va nerv endokrin tizimidagi o'zgarishlariga ta'sirini oldini olish muhim hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi:** Organizmda tireoid gormonlarning yetishmovchilida yuzaga keladigan o'zgarishlarni baholashdan iborat.


**Tekshirish usullari va materiallari:** Bizning tekshiruvmizdagi tadqiqot uchun 2020-2024 yil I-kvartal davomida Surhondaryo viloyati Endokrinologiya markazida yotib davolangan qalqonsimon bez garmonlari yetishmovchiligi bor bo'lgan bemorlarda o'rganildi.

Tekshirishlar turli darajada tireoid gormonlarning yetishmovchilida yuzaga kelgan 90 nafar bemorlarda o'tkazildi.

Tadqiqotdagi tireoid gormonlarning yetishmovchilida yuzaga kelgan bemorlarni yoshi bo'yicha o'rganilganda: 17 yoshdan 20 yoshgacha -15 nafar (16,7%) gipoterioz

bemorlar, 20 yoshdan-25 yoshgacha 39 nafar (43,3%) gipoterioz bemorlar, 25-30 yoshlik 18 nafar (20%) gipoterioz bemorlar, 30-35 yoshlik gipoterioz bemorlar 12 nafar (13,3%), 35 yosh va undan bemorlar esa 6 nafar (6,7%)ni tashkil qildi.

### **Tireoid gormonlarning yetishmovchiligi bor bemorlarni yosh buyicha nisbati**



**Tadqiqot natijalari:** Olingan natajalar yakuni shuni ko'rsatadi, tireoid gormonlarning yetishmovchilida o'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'ziga xos dinamikaga ega. Masalan qon tahlilida T3 va T4 garmonlar miqdori eng past ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi, lekin bu ko'rsatkichlar ichki a'zolarning fiziologik o'zgarishlarga yaqqol namoyon bo'lmadi. Tadqiqotmizdagi barcha bemorlarda nafas yetishmovchiligi belgilari ko'zatildi. Ayniqsa o'rta yosh guruh 20-25 yoshdagi bemorlarda xushdan ketish xolatlari aniqlandi. Qalqonsimon bez teroid garmonlari yetishmovchilida nafas bug'ulish xolatlari ko'zatildi.

Yurak qon-tomir tizimida arteriola va kapillyarlar devorida biriktiruvchi tolalarining dezorganizatsiyasi, shuningdek, miokard mushak tolalarining oqsilli distrofiya o'zgarishi, miofibrillalarning tolalanishi kabi patomorfologik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ldi. Tadqiqotmizdagi bemorlar qon tomirlar endoteliysining transport vazifasini buzilishi va tomirlar devorining boshqa tarkibiy qismlariga ta'siri natijasida hujayra ichi va tsellyula ichi shishining rivojlanishiga olib keladi.

Siydik ajratish tizimi ayniqsa buyraklarning funksional yetishmovchiligi aniqlandi. Siydik umumiyy va biokimiyoviy tahlilarida siydik tuzlari va oqsillar miqdorining, mochevina va keratinin miqdirini ortganligi aniqlandi. Bu esa siydik ajratish tizimi nefrotik yetishmovchilikga olib keladi.

**Xulosa:** Shunday qilib, teroid gormonlar yetishmovchiligini bartaraf etish nafaqat yetishmayotgan moddalarni qo'shimcha iste'mol qilishni, balki ularning so'riliшини yaxshilaydi, shuningdek, organizmdagi qalqonsimon bez gormonlari sintezini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Bizning tadqiqotimizda teroid gormonlar yeyishmovchilida nafas olish tizimida barcha bemorlarda nafas yetishmovchiligi belgilari ko'zatildi. Yurak qon-tomir tizimida arteriola va kapillyarlar devorida biriktiruvchi tolalarining dezorganizatsiyasi, miokard tolalarining oqsilli distrofiyasi, miofibrillalarning tolalanishi kabi patomorfolik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ldi.